7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "___" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** B. A. O'lmasova - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
9	**Taqrizchilar:** **Z.I. Saliyeva**- SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi professori, f.fn. **A. Odilov** – "Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm menejmenti" kafedrasi mudiri, PhD.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

_____

2025-yil

Ro'yxatga olindi № BD-61010100-1.21

2025-yil "___" _____

TURIZM MAHSULOTI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko'rsatish sohasi
Ta'lim yo'nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
TM1406	2026-2027	4	6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		5

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Turizm mahsuloti**	72	108	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda turistik mahsulot xizmatlarning xalqaro va milliy darajasini namoyish etish, bugungi kunagi turistik mahsulot bozorining iqtisodiy-siyosiy ahamiyatini kasb etish, turistik mahsulot bozor munosabatlarini o'rganish va milliy turistik mahsulotlarimizni xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini topishining imkoniyatlarini hosil qilish ko'nikmasini hosil etish.

Fanning vazifasi – talabalarga ushbu fan zamonaviy turistik mahsulotni o'ziga xos xususiyatlar, funksiyalar, rivojlanish omillari, baholash ko'rsatkichlari va shu bilan birga, turizm mahsulotlar bozorining optimal ishlashi turistik mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif muvozanatini, "pul - xizmatlar" almashinuvini, turistik xizmatlarning pul oqimlari va oqimlarini ta'minlaydigan iqtisodiy dastaklar tizimining mavjudligi hamda yangi jozibador mahsulotlar yaratish va unga innovatsion resurs va obektlarni yaratish unga aloqador bo'lgan qonunlar hamda qonunosti hujjatlari munosabatlar to'g'risida amaliy ko'nikmalarni hosil qilish.

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulot)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

2

O'qish moduli.

1- **mavzu.** Dastlabki turizm shakillari va zamonaviy turizmning paydo bo'lishi.
2- **mavzu.** Turizm mahsuloti ishlab chiqishi.
3- **Mavzu.** Turizmning xarakteristikasi va tasnifi.
4- **Mavzu.** Turizm mahsuloti ishlab chiqarish strukturasi va darajalari.
5- **Mavzu.** Turoperator shaxsiyati va faoliyati.
6- **Mavzu.** Turizm mahsulotini yaratish jarayoni.
7- **Mavzu.** Jozibador turizm mahsulotini yaratish.
8- **Mavzu.** Turizm mahsulotida xizmat ko'rsatish sinflari.
9- **Mavzu.** Xizmat ko'rsatish dasturini tuzish.
10- **Mavzu.** Xizmat yetkazib beruvchi bilan muzokaralar.
11- **Mavzu.** Transport xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlar.
12- **Mavzu.** Ovqatlantirish xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlar.
13- **Mavzu.** Joylashtirish xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlar.

14- **Mavzu**. Turizm mahsulotiga kiritigan qo'shimcha xizmatlar
15- **Mavzu**. Turizmda rasmiyatchiliklar tushunchasi va ularning turlari.
16- **Mavzu**. Turizm sohasi rivojlangan davlatlarning bojxona rasmiyatchiliklari.
17- **Mavzu**. Turizm mahsulotni yaratishda VISA rasmiyatchiliklari.
18- **Mavzu**. Turizmda marketingning ahamiyati.
19- **Mavzu**. Innovatsion turistik mahsulotga nisbatan raqobatbardoshlik omillari.
20- **Mavzu**. Turizm ishlab chiqarish chiqishda axborot-kommunikatsiya texnalogiyalarining roli.
21- **Mavzu**. Global bron qilish tizimi Galile.
22- **Mavzu**. Amadeus elektron bron qilish tizimi.
23- **Mavzu**. Muqobil bronlash tizimlar.
24- **Mavzu**. Turizm mahsulotini sotilishida savdo kanallarini shakllantirish.
25- **Mavzu.** Turizm mahsuloti targ'iboti (PR).
26- **Mavzu.** Turizm korxonasi tomonidan turistlar xavfsizligini ta'minlash.
27- **Mavzu.** Turistlarga ma'lumot berish va sug'urta tizimi.
28- **Mavzu.** Xavfsizlik tizimini texnik jihozlash va xodimlarni o'qitish.
29- **Mavzu.** Transport xizmatini tashkil etish.
30- **Mavzu.** Turistik marshrutlarni ishlab chiqish.
31- **Mavzu.** Turistik marshurtlarda harakatlanish shakllar.
32- **Mavzu.** Turistik mahsulotlarni reklama qilish.
33- **Mavzu.** Turizm sohasida brend yaratish, ommaviy uchrashuv va namoyishlarni tashkil etish.
34- **Mavzu.** Turistik yarmarkalarda qatnashish va tayyorgarlik ko'rish.
35- **Mavzu.** Turmahsulot katologi va turli ko'rgazmalarda qatnashish.
36- **Mavzu.** Turizm mahsulotini sotilgandan keyingi xaridorlar xulosasi.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. **Turizmda transport va joylashtirish xizmatlarini tashkil etish mavzusida tahlil yozish va prezentatsiya tayyorlash.**
   Bajarish tartibi: Turizmda transport va joylashtirish xizmatlarini tashkil etish jarayonini o'rganish. Transport xizmatlari va joylashtirish turlarini qanday tanlash kerakligini tushuntirish. Joylashtirish va transport xizmatlarining muhimligini misollar bilan ko'rsatish. Turizmda transport va joylashtirish xizmatlarini tashkil etishning samarali usullarini tahlil qilish.
2. **Turizmda brend yaratish va ommaviy tadbirlarni tashkil etish mavzusida maqola yozish va prezentatsiya tayyorlash.**
   Bajarish tartibi: Turizm sohasida brend yaratish jarayonini o'rganing. Ommaviy tadbirlar (yarmarkalar, festivallar) tashkil etishning ahamiyatini tushuntirish. Brend yaratish va tadbirlarni tashkil etish bo'yicha misollar keltirish. Turizmda brend yaratish va tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati haqida maqola yozish.
3. **Turizm sohasida yuridik va huquqiy muammolar mavzusida hisobot**

yozish.
Bajarish tartibi: Turizm sohasidagi yuridik va huquqiy muammolarni o'rganish. Turizm tashkilotlari tomonidan yuridik hujjatlar, shartnomalar va litsenziyalar qanday ishlatilishini tushuntirish. Yuridik huquqlarni himoya qilish va shikoyatlar bilan ishlashni misollar bilan ko'rsatish. Turizm sohasida yuridik huquqiy muammolar va ularni hal etish usullari haqida tahlil qilish va hisobot yozish.

4. **Turizm mahsulotlarini sotishda elektron tizimlar mavzusida taqdimot tayyorlash.**
Bajarish tartibi: Elektron bronlash tizimlari (masalan, Amadeus yoki Galileo) haqida ma'lumot berish. Turizm mahsulotlarini onlayn sotish uchun qanday tizimlar qo'llanishini tushuntirish. Savdo kanallarini varatishda elektron tizimlarning afzalliklarini misollar bilan ko'rsatish. Turizmda elektron tizimlar orqali sotish jarayonlarini qanday optimallashtirish mumkinligini tahlil qilish.
5. **Turizmda ekologik barqarorlik va uning ahamiyati mavzusida tadqiqot olib borish.**
Bajarish tartibi: Ekologik barqarorlik va uning turizm sohasidagi ahamiyatini o'rganish. Ekologik turizm (ecotourism) va uning rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish. Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilishini tushuntirish. Ekologik turizmning ahamiyati va barqarorlikni ta'minlashning usullari haqida tahlil qilish.
6. **Turizmda raqobatbardoshlikni oshirish uchun strategiyalar mavzusida slayd tayyorlash.**
Bajarish tartibi: Turizmda raqobatbardoshlikni oshirish uchun qanday strategiyalarni ishlab chiqish kerakligini o'rganish. Raqobatbardosh tahlilni qanday amalga oshirishni tushuntirish. Turizmda innovatsiyalar va xizmatlarni yaxshilash orqali raqobatni kuchaytirish usullarini ko'rsatish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun turizm korxonalariga tavsiyalar berish.
7. **Xavfsizlik va sug'urta tizimlari mavzusida maqola yozish.**
Bajarish tartibi: Turizmda xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday choralar ko'rish kerakligini tushunib olish. Turistlarni sug'urta qilishning ahamiyati va qanday sug'urta turlari mavjudligini o'rganish. Xavfsizlik tizimlarini texnik jihatdan ta'minlash va xodimlarni o'qitish jarayonini tushuntirish. Xavfsizlik va sug'urta tizimlari turizmda qanday muhim rol o'ynashini aniqlash.
8. **Turizm mahsulotini sotish va marketing mavzusida hisobot va slayd tayyorlash**
Bajarish tartibi: Turizm mahsulotlarini sotishda marketing strategiyalarini qanday ishlab chiqish kerakligini tushunib olish. Mahsulotni targ'ib qilish uchun qanday reklama va PR vositalarini qo'llash mumkinligini o'rganish. Sotish kanallari va ulardan samarali foydalanish haqida misollar keltiring. Turizmda marketing va sotishning ahamiyati haqida hisobot yozish.
9. **Turizmda xizmat ko'rsatish va mijoz bilan aloqalar mavzusida hisobot va prezentatsiya tayyorlash.**
Bajarish tartibi: Turizm xizmatlarini ko'rsatishda mijoz ehtiyojlarini qanday

qondirishni o'rganish. Xizmat ko'rsatish jarayonlarining asosiy bosqichlarini va ularni samarali boshqarish usullarini tushuntirish. Mijozlarga xizmat ko'rsatishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni misollar bilan ko'rsatish. Mijozlar bilan samarali aloqalarni o'rnatishda qanday muammolarni bartaraf etish kerakligini tahlil qilish.
10. **Turizm mahsulotini yaratishdagi innovatsion yondashuvlar mavzusida prezentatsiya tayyorlash.**
Bajarish tartibi: Innovatsion turizm mahsulotlarini yaratish va rivojlantirish jarayonini o'rganish. Raqobatbardosh innovatsiyalarni turizmda qanday joriy qilish mumkinligini tushuntirish. Yangi turizm mahsuloti yaratishda texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish usullarini tahlil qilish. Innovatsion turizm mahsulotlarini o'rganish.
11. **Turizm mahsuloti segmentatsiyasi va tasnifi mavzusida hisobot tayyorlash.**
Bajarish tartibi: Turizm mahsulotining segmentatsiyasi va tasnifi haqida batafsil ma'lumot berish. Mintaqaviy turizm mahsuloti yaratishning qanday afzalliklarini ko'rib chiqish. Yangi turistik mahsulot segmentini yaratish uchun qanday yondashuvlar qo'llanishi mumkinligini aniqlash.Turizm mahsulotlarining segmentatsiyasining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish va hisobot yozish.
12. **Turizm mahsuloti ishlab chiqish jarayonini tahlil qilish.**
Bajarish tartibi: Turizm mahsuloti nima ekanligini va qanday yaratilishini tushunib olish. Turizm mahsulotini yaratishda mijozning ehtiyojlarini qanday inobatga olish kerakligini o'rganish. Turizm mahsulotini yaratishning bosqichlarini va ularning turlarini misollar bilan tushuntirish va prezentatsiya tayyorlash.
13. **Turizmda mijozlar bilan aloqalarni boshqarish (CRM tizimlari) mavzusida maqola yozish.**
Bajarish tartibi: CRM (Customer Relationship Management) tizimining turizm sohasidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish. Mijozlar bilan aloqalarni samarali boshqarish uchun qanday tizimlar qo'llanilishini o'rganish. CRM tizimlarining turizm korxonalarida muvaffaqiyatli qo'llanilishiga misollar berish. CRM tizimlari yordamida mijozlar bilan munosabatlarni qanday yaxshilash mumkinligi haqida maqola yozish.
14. **Turizm mahsulotlarining jozibadorligini oshirish mavzusida maqola yozish.**
Bajarish tartibi: Turizm mahsulotlarining jozibadorligini qanday oshirish mumkinligini o'rganish. Yangi mahsulotlar yaratishda mijozlarning ehtiyojlarini qanday inobatga olish kerakligini tushuntirish. Jozibador turizm mahsulotlarini yaratishda marketingning roli haqida misollar berish. Turizm mahsulotlarining jozibadorligini oshirish uchun qanday marketing strategiyalarini qo'llash usulini tushuntirish.
15. **Turizmda raqamli marketing va uning ahamiyati mavzusida taqdimot tayyorlash.**
Bajarish tartibi: Raqamli marketingning turizm sohasidagi roli va ahamiyatini tushunib olish. Turizm mahsulotlarini raqamli kanallar orqali

	qanday samarali targ'ib qilish mumkinligini o'rganish. Raqamli marketing vositalari (sosial media, SEO, email marketing) haqida misollar keltirish. Turizmda raqamli marketingni qo'llashning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma asosida bajariladi.
3	**IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Ushbu o'quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va munosabatlarga ega bo'ladilar: - "Turizm mahsuloti" fanining vujudga kelishi va uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari haqida hamda ularning asosiy g'oyalari to'g'risida yaxshi tasavvurga ega bo'lish, turizm sanoatining asosiy prinsiplarini o'rganish, turizm mahsuloti ishlab chiqarilish jarayoni hamda uning ahamiyati, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlar, turistlar ehtiyoji o'rganish va qondirish jarayonlari asosida turstik mahsulot ishlab chiqish, turistlarni ehtiyojini qondirishda xizmatlar assortimentini ko'paytirish usullarini amalda qo'llay oladi; - turizm sohasida turizm mahsuloti bilimlarning nazariy asoslarini,turizm sektoridagi yangi tendlarni, turizm mahsulotini ishlab chiqish munosabatining asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, turizm mahsulotini sotishning qonunlari va tamoyilllarini o'rgatish hamda ularni amalda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirish bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'ladi; - turizm mahsulotini ishlab chiqish jarayonlarni tahlil qilish usularini qo'llash, amaliy yangi turmahsulot yaratish, ilmiy tushunchalar (kategoriyalar)ni, vujudga kelgan imkoniyatlardan foydalanish va muamolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.
4	**V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • videodarsliklar; • videokonferensiyalar; • taqdimotlar tayyorlash; • tezkor savol-javoblar o'tkazish; • guruh bo'lib ishlash; • mavzularga doir online platformalarda (Moodle, Quizlet) test ishlash; • online guruhlarda loyilalar yaratish; • mantiqiy fikrlash • portfolio yaratish.
5	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy darslarda faol va to'liq qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini a'lo darajada bajarish va hisobot topshirish, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Tuxliev N., Jiyanov O'. Turizmnining rivojlanish milliy modellari darislik. –T., 2020. - 264 b .
2. TOURISM PRODUCT DEVELOPMENT. Publication Date: November, 2019. Document Category: Tourism Document Type: Resource Materials.
3. Turizm to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari
4. Sh.S. Sayfiddinov Turoperatorlik faoliayti o'quv qo'llanma. 2019y. - 267b.
5. Борисов Ю.И, Сигов А.С, Нефедов В.И. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА – М. 2005.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Ильина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. - М.: Финансы и статистика. 2005. - 480 с
   Биржаков М.Б. Введение в туризм. СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2004.
7. Кабушкин Н.И. Менежмент туризма.-М.: Новое знание, 2005.- 644 с.
8. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма.- М.: Финансы и статистика, 2003. – 107 с.
9. Hospitality, Tourism and heisure Management: Issues in Streegy and Culture. London, 2003. -265 p.
10. Ashim Gupta. Travel Agency and Tour Operations: Concepts and Principles Publisher: Centrum Press 2012, New Delhi, India

Axborot manbaalari

11. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
12. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
13. www.ziyonet.uz - ta'lim portali.
14. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti.
15. www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sayti.
16. https://www.uab.cat/doc/ENturisme4_101235